

FUQAROLARNING MULKIY HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA IDORAVIY NOTARIAL ARXIVNING HUQUQIY AHAMIYATI

*(Toshkent viloyati adliya boshqarmasi
huzuridagi Idoraviy notarial arxiv
mudiri Avlaqulov Sobir Shodiqul o'g'li)*

Annotatsiya

Mazkur maqolada notarial arxivning fuqarolarning mulkiy huquqlarini himoya qilishdagi huquqiy o'rni va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Notarial arxivlar notarial harakatlar natijasida yuzaga kelgan hujjatlarni uzoq muddat saqlash, ularning butligini ta'minlash hamda zarurat tug'ilganda ulardan foydalanish imkoniyatini yaratish orqali fuqarolarning mulkiy huquqlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Notariat to'g'risida"gi Qonun normalari asosida notarial arxivlarning huquqiy maqomi, ularning sud-huquq amaliyotidagi ahamiyati hamda notarial arxivlarni raqamlashtirish jarayonlarining huquqiy samaradorlikka ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: notarial arxiv, notariat, mulk huquqi, fuqarolik huquqi, huquqiy kafolat, elektron arxiv, raqamlashtirish.

Kirish

Fuqarolarning mulkiy huquqlarini samarali himoya qilish huquqiy demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xususiy mulkning daxlsizligi, mulkiy munosabatlarning barqarorligi hamda huquqiy aniqlikni ta'minlash fuqarolik-huquqiy munosabatlarning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda notariat instituti muhim o'rin egallaydi. Notariat tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan notarial arxivlar esa notarial tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarning saqlanishini ta'minlash orqali fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim huquqiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda mulkiy nizolar sonining ortishi, hujjatlarni elektron shaklda yuritish amaliyotining kengayishi hamda davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi notarial arxivlarning huquqiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Notarial arxivlarning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga muvofiq, xususiy mulk daxlsiz bo'lib, davlat tomonidan himoya qilinadi. Mazkur konstitutsiyaviy kafolat fuqarolarning mulkiy huquqlarini ishonchli himoya qilishning asosiy huquqiy negizini tashkil etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasiga ko'ra, notarial ish yuritish hujjatlari va materiallari uch yil o'tgach

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi hamda viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari huzuridagi idoraviy notarial arxivlarga topshiriladi. Notarial idora tugatilgan yoki notariusning faoliyati yakunlangan hollarda ham barcha notarial hujjatlar idoraviy notarial arxivlarga qabul qilinadi.

Mazkur tartib fuqarolarning mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlarning uzoq muddat davomida saqlanishini ta'minlashga hamda ularning huquqiy kuchini saqlab qolishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni notarial hujjatlarni saqlashning umumiy huquqiy asoslarini belgilab bergan bo'lsa, ushbu faoliyatning amaliy mexanizmlari "Jismoniy va yuridik shaxslarga ma'lumotnomalar berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning yagona ma'muriy reglamenti"ning 31-ilovasi – "Idoraviy notarial arxivlar tomonidan arxiv hujjatlarini berish pasporti" bilan tartibga solingan.

Mazkur reglamentga muvofiq, idoraviy notarial arxivlar jismoniy shaxslarga davlat xizmati ko'rsatish vakolatiga ega bo'lib, ular tomonidan notarial rasmiylashtirilgan hujjatlarning dublikatlari, notarial harakatlarni ro'yxatga olish reestr kitobidan ko'chirmalar, arxiv hujjatlaridan nusxalar hamda arxiv ma'lumotnomalari beriladi. Mazkur tartib fuqarolarning mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlardan foydalanishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlaydi hamda hujjatlardan foydalanishda yagona ma'muriy tartibni ta'minlaydi.

Shuningdek, reglamentda arxiv hujjatlarini olish uchun ariza beruvchining shaxsini aniqlovchi ma'lumotlar, notarial harakatning turi, reestr raqami, hujjat tasdiqlangan sana kabi rekvizitlarning ko'rsatilishi majburiy etib belgilangan. Ushbu talablar arxiv ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlash va uchinchi shaxslarning noqonuniy murojaatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Notarial arxivlarning fuqarolarning mulkiy huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyati.

Notarial arxivlarda oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, garov shartnomalari, meros huquqi to'g'risidagi guvohnomalar, ishonchnomalar, mulkka nisbatan taqiq qo'yish va uni bekor qilish bilan bog'liq hujjatlar hamda boshqa notarial hujjatlar saqlanadi.

Mazkur hujjatlar birinchi navbatda fuqarolarning huquqlarini tasdiqlovchi ishonchli dalil vazifasini bajaradi. Asl hujjatlar yo'qolgan, yaroqsiz holga kelgan yoki uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ravishda egallangan hollarda notarial arxivda saqlanayotgan nusxalar huquqni tiklashning muhim vositasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, notarial arxiv hujjatlari sudlar, prokuratura organlari, tergov organlari, davlat ijrochilari, kadastr organlari hamda boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan mulkiy nizolarni hal etishda muhim daliliy manba sifatida foydalaniladi. Shu jihatdan notarial arxivlar odil sudlovni amalga oshirishda ham muhim yordamchi institut vazifasini bajaradi.

Ayniqsa, garov shartnomalari asosida mulkka nisbatan qo'yilgan taqiqlarni bekor qilish bilan bog'liq masalalarda arxiv hujjatlarining mavjudligi fuqarolarning o'z mulkiga erkin egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlarini tiklash imkonini beradi.

Notarial arxivlarni raqamlashtirishning ahamiyati

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi va adliya tizimini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar notarial arxivlar faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Elektron arxiv tizimlarining joriy etilishi hujjatlarni izlash muddatini qisqartirish, idoralararo axborot almashinuvini tezlashtirish, inson omili ta'sirini kamaytirish hamda fuqarolarga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, elektron arxivlarning shakllantirilishi hujjatlarning saqlanish xavfsizligini kuchaytirish va ularning yo'qolishi xavfini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalari hamda yagona elektron notariat tizimining yanada rivojlantirilishi notarial arxivlar faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Notarial arxiv fuqarolarning mulkiy huquqlarini himoya qilishning muhim huquqiy institutlaridan biri hisoblanadi. U notarial tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarning uzoq muddat saqlanishini ta'minlash, mulkiy huquqlarni tasdiqlash, yo'qolgan hujjatlarni tiklash hamda sud va boshqa vakolatli organlarni ishonchli dalillar bilan ta'minlash orqali huquqiy aniqlik va qonun ustuvorligini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: 2023;
2. O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni;
3. "Jismoniy va yuridik shaxslarga ma'lumotnomalar berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning yagona ma'muriy reglamenti"ning 31-ilovasi – "Idoraviy notarial arxivlar tomonidan arxiv hujjatlarini berish pasporti"